

ISSN: 2181-3035

30.06.2022

№ 6



# TALQIN VA TADQIQOTLAR

## respublika ilmiy-uslubiy jurnali

- 📍 Aniq fanlar
- 📍 Tabiiy fanlar
- 📍 Tibbiyat fanlari
- 📍 Texnika fanlari
- 📍 Iqtisod fanlari
- 📍 Filologiya fanlari
- 📍 Pedagogika fanlari
- 📍 Ijtimoiy-gumanitar fanlar
- 📍 Psixologiya fanlari
- 📍 San'at va madaniyat fanlari
- 📍 Jismoniy tarbiya va sport



@TALQINVATADQIQOTLAR

@ talqin@bk.ru

+99891-152-93-14

[www.talqinvatadqiqotlar.uz](http://www.talqinvatadqiqotlar.uz)



## BOG‘CHA YOSHIDAGI BOLALARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Ashirboev Ixtiyor Maxmudjon ugli

Chirchiq davlat pedagogika Universiteti,maktabgacha va boshlang’ich ta’limda jismoniy tarbiya va sport yo’nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6783433>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bog‘cha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari hamda muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari haqida ma’lumotlar, xulosa va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** bola, tarbiya, nutq, bog‘cha, ijtimoiy muhit, muloqot

## PSYCHOLOGICAL CONDITIONS OF FORMATION OF COMMUNICATION CULTURE IN CHILDREN OF KINDERGARTEN AGE

**Annotation:** This article provides information, conclusions and recommendations on the psychological characteristics of children of kindergarten age and the psychological conditions for the formation of a culture of communication.

**Keywords:** child, upbringing, speech, kindergarten, social environment, communication.

Kishilarda yoki yoshlarda yuksak ma’naviyatni va madaniyatni shakllantirish hamda komil insonni tarbiyalash murakkab shu bilan bir qatorda mashaqqatli muayyan davrni talab qiluvchi jarayon xisoblanadi. Ulug‘ ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo momot, yo najot yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” deb aytgan so‘zlari hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga, ularga ta’lim-tarbiya berilishiga hamda komil inson bo‘lib ulg‘ayishiga katta etibor qaratilayotganligidan dalolatdir.

Bola shaxsining psixik rivojlanishi va shakllanishi – bu haddan tashqari murakkab tadqiqot ob’ektidir. Odam – bu biosotsial mavjudotdir. Odamning biosotsial birligi individni sensor-perseptiv jihatdan uyushtirilishida o‘z ifodasini topadi hamda bir tomondan, psixik jarayonlarda, ikkinchi tomondan esa faoliyatning



ongli sub'ekti va sotsial taraqqiyotining faol qatnashchisi sifatida uning xulq-atvori xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Bunda sotsial determinatsiya, odamning turmush tarzi bilan faoliyatiga oid jarayonlarning hamda shaxs xususiyatlarining belgilovchi omillar hisoblanadi.

Insonda dunyoni bilish va tadqiq qilishga bo'lgan imkoniyati tug'ilishidan boshlab shakllangandir. Faqatgina boladagi ana shu mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish zarurdir, chunki muloqot madaniyatiga ega bo'Imagan shaxs o'zaro munosabatlarga kirishishida, o'zaro tushunish, sherikchilik bilan, o'zaro masuliyatni sezish kabi muhim jihatlarni qiyinchilik bilan boshidan kechiradi. Bundan tashqari, bolalardagi muloqot malakalarini mavjudligi ularnii maktabga moslashish jarayonini osonlashtiradi, shuningdek, ularning tafakkuri, dunyoqarashini rivojlantiradi, kerakli bilimlarni egallashlarini tezlashtiradi.

Inson bolasi nutqni egallagan holda tug'ilmaydi. Bola nutqining taraqqiyoti uning atrofidagi katta odamlar tilining ta'siri ostida rivojlanib boradi. Nutqni egallahshdek juda ham qiyin jarayonni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqo oladi.

Bolalarning nutqini egallashlari ikki davrga ajratiladi:

- bir yoshdan bir yarim yoshgacha bo'lgan davr. Bunda ota-onada va yaqin kishilar bilan bo'ladigan emotsional muloqot katta rol oynaydi (faol lug'ati kam);
- bir yarim yoshga to'lgandan keyingi davr. Bunda ota-onada va yaqin kishilar hamda nisbatan kengroq ijtimoiy muhit (faol lug'ati tez o'sadi).

Bog'cha yoshidagi bolalar og'zaki nutqni juda tez egallagani bois, o'z ona tillarining gramatik tuzilishini faqat og'zaki shaklda o'zlashtira boshlaydilar.

Bolalar so'z turkumlaridan otlarni tez o'zlashtiradilar, ularning so'z zahiralarining ko'pchiligi otlardan iborat bo'ladi, otlardan so'ng fe'l va sifatlarni o'zlashtira boshlaydilar. Bolalar uchun nutq faqat boshqa odamlar bilan amalga oshiriladigan aloqa vositasigina emas, balki u o'z hulq-atvorlarini boshqarish vositasi hamdir. Chunki inson muloqot orqali kimnidir yoki nimanidir, salbiy yoki ijobiy tomonni muhokama qiladi hamda shu orqali o'zida ana shu narsalarni ko'ra oladi.

Bolalar nutqini rivojlantirish uchun bolani nutq o'stirishga doir tevarak – atrof ob'ektlari bilan tanishtirish bolalarni eslab qolish va to'g'ri talaffuz etishi, so'zlashganda tez-tez foydalanishi, zarur bo'lgan so'zlarini taxminiy ro'yxatini tuzishi, ular bilan iloji boricha ko'proq va to'g'ri talaffuz orqali muloqot qilish lozim. Nato'g'ri talaffuz qilingan so'zlar bolaning xotirasida saqlanib qolishi va bu so'zлarni ishlatish unga odat bo'lib qolishi mumkin.

Maktabgacha tarbiya jarayonida muloqot madaniyatini bolalarda shakllantirish uchun quyidagilarga katta ahamiyat beriladi: bolalarda nutqni shakllantirishga doir mashg'ulotlarga qiziqishini o'yg'otish, tarbiya xarakteridagi aniq masalalarni hal etish, mashg'ulotlarni maqsadi, mazmuni va o'tkazish muddatini hisobga olgan holda



rejalashtirish, mashg‘ulotlarni barcha bosqichlariga vaqtning sarflanishini asosli aniqlash bolalarda muloqot madaniyatini shakllantiriga yordam berishi mumkun.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov, S. A. (2020). Opportunities with working ability children in education. In Psixologicheskoe zdorove naseleniya kak vajnyu faktor obespecheniya protsvetaniya obshchestva (pp. 298-300).
2. Usmonov, S. A. (2020). Problems and solutions with working ability children. In Psixologicheskoe zdorove naseleniya kak vajnyu faktor obespecheniya protsvetaniya obshchestva (pp. 177-179).
3. Usmonov, S. A., & Xoldaraliyeva, A. A. Q. (2021). Talaba yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning psixologik tamoillari. Academic research in educational sciences, 2(5), 73-77.
4. Usmonov, SH. A., Zakirova, M. S., & Nuriddinov, R. S. O‘. (2021). Ilk o‘spirinlik davrida aqliy qobiliyatlarning empirik tahlili. Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (9 (106)), 12-16.
5. Axmadjonovich, U. S. (2022). Empirical analysis of the impact of socio-psychological factors on mastery indicators in students.
6. Usmanov, S., & Absalomov, E. U. (2020). Improvement of tolerant culture in the family. Theoretical & Applied Science, (1), 674-676.
7. Maftuna, U., & Nishanov, M. (2021). The use of multimedia in the teaching of analytical chemistry in higher education. International journal of discourse on innovation, integration and education, 2(1), 276-279.
8. Davlatjonqizi, U. M. (2021). Possibilities of using digital educational technologies in teaching analytical chemistry. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 537-540.
9. Abdulazizova, X. M., & Usmonova, M. D. (2020). Psychological health in choice of profession. In Psixologicheskoe zdorove naseleniya kak vajnyu faktor obespecheniya protsvetaniya obshchestva (pp. 234-236).
10. Usmonova, M. D., & Ibrohimova, G. A. (2020). Eduction of culture of tolerance in a national character. In Psixologicheskoe zdorove naseleniya kak vajnyu faktor obespecheniya protsvetaniya obshchestva (pp. 174-176).
11. Usmonova, M. D., & Parpiyev, O. A. (2020). Problem of psychological health in education. In Psixologicheskoe zdorove naseleniya kak vajnyu faktor obespecheniya protsvetaniya obshchestva (pp. 287-289).



MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	Ashirboev Ixtiyor Maxmudjon ugli BOG‘CHA YOSHIDAGI BOLALARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI	4
2.	Ashirboev Ixtiyor Maxmudjon ugli KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA MILLIY XALQ O’YINLARINING AHAMYATI	7
3.	Matnazarova Shahnoza, Jumaniyazova Enajan INTEGRATED SKILLS IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY	10
4.	Normurodova Qunduz Tog‘ayevna Fayziyeva Nazira Baxramovna TABIIY KASALLANGAN PHASEOLUS VULGARIS O’SIMLIGINING MAHALLIY NAVLARIDAGI, O’SIMLIK HUJAYRASI BILAN BOG’LANGAN VA ERKIN PEROKSIDAZA FERMENTI MIQDORINI O’RGANISH	12
5.	Enazarova Zarnigor Nizomidin qizi Ibrohim Rahmonovich Asqarov, Mo’ydinov Nurullo KOLLAGENNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI	15
6.	Mirzaaxmedov Muxammadbobur Karimberdiyevich Normatov Rafik Nurmatovich ELEKTR ENERGIYASI SOHASIDA SUNIY INTELLEKT TIZIMLARNING AHAMIYATI	17
7.	Parviz Akbarjonovich Nabiyev FARG’ONA VODIYSI TOJIKLARI AN’ANAVIY HUNARMANDCHILIGINING ETNOLOGIK TAHLILI (KASHTACHILIK, KIYIM-KECHAK TAYYORLASH, DO’PPIDO’ZLIK VA PICHOQCHILIK MISOLIDA)	21
8.	Normurodova Qunduz Tog‘ayevna Fayziyeva Nazira Baxromovna SOG‘LOM VA VIRUS BILAN KASALLANGAN PHASEOLUS VULGARIS O’SIMLIGI PEROKSIDAZA FERMENTI AKTIVLIGINI O’RGANISH	29
9.	Nafisa Quvvatova ZULFIYA - HAYOTBAXSH TUYG‘ULAR KUYCHISI	33
10.	Turg‘unpo’latov Diyorbek Ro’zmamat o‘g‘li SO‘Z YASALISHI VA UNI O’RGANISHDAGI QO’LLANADIGAN ILG‘OR PEDAGOGIK TA’LIM METODLARINING O’RNI	36
11.	Собирова Фарангиз Фарходовна ИСЛАМСКИЕ РЕШЕНИЯ В БОРЬБЕ ПРОТИВ ГНЕВА	40
12.	O’tkir Saqijanovich Qodirov YANGI O’ZBEKİSTON YOSHLARIGA MUSIQANING TA’SIRI	44
13.	Бабаев Эльдар ОБУЧЕНИЕ ГОВОРЕНИЮ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	46
14.	Guzal Muminova MA’NAVIY BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA XALQ KUYLARINING O’RNI	51
15.	Химайдинов Шакир Салайдинович ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ	54
16.	G.Mo’manova, U.Haydarova KOGNITIV LINGVISTIKADA METAFORA MASALASI VA ULARNING YAPON MUMTOZ MANBALARIDA IFODALANISHI	59
17.	ВОЗМОЖНОСТИ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ	64

